O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
CHUST TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

2022 - yil 30 - sentabr 591-6-89-Q/22 Chust tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 43-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami 3163, 2019-yil 31-may) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2023-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2023-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (Keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha 353 nafarni tashkil etadigan 7,0 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironlar uchun 3,0 foiz (152 nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta‘lim olgan bitiruvchilari uchun 1,9 foiz (101 nafar);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 1,5 foiz (74 nafar);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,4 foiz (14 nafar);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,1 foiz (6 nafar);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,1 foiz (6 nafar); miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari

uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

- safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

- nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan.

4. Quyidagi ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog’bon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta‘minlasin;

2023-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2023-yilning birinchi choragi mobaynida ta‘minlasin, bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma’muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag’lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami 3163, 2019 yil 31 may) asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to‘lashni ta‘minlasin.

8. Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (B.Yuldoshev) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Chust tuman hokimining 2021-yil 24-sentabrdagi 342-6-89-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Chust haqiqati” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman

hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Baxodirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Б.Хамдамов**

Chust tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
591-6-89-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi:

1.	J.Baxodirov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari

Komissiya raisining o‘rinbosari:

2.	B.Yuldoshev	-	Tuman Aholini bandligiga ko‘maklashish markazi direktori

Komissiya a’zolari:

3.	Z.Boybayev	-	Tuman hokimining o‘rinbosari
4.	D.Tursunov	-	Tuman xalq ta’limi bo‘limi mudiri
5.	B.Sotimov	-	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi mudiri
6.	Y.Tursunov	-	Tuman hokimligi huzuridagi Jazoni ijro etish joylaridan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari o‘rinbosari
7.	O.Dexqonov	-	Tuman hokimligi huzuridagi bolalar huquqlarini himoz qilish bo‘limi bosh mutaxassisi

Komissiya kotibi:

8.	M.Umarov	-	Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazining ishsizlarni ishga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i

Izoh*: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*

Tuman hokimining

birinchi o‘rinbosari J.Baxodirov

Chust tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
591-6-89-Q/22-son qaroriga
2-ilova

№	Korxona va tashkilot nomi	Jami ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	Nogironlar uchun		Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini ta'momlaganlar		14 yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolalai ota onalar		Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun		Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o'tagan va muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilganlar		Jazoni o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun		Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun		Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	
				soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi
1	3-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	140	10,0	4,0	3,0	3,0	1,9	2,0	1,5	1,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
2	4-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	45	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
3	7-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	89	6,0	3,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
4	11-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	58	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
5	14-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	66	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
6	15-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	134	10,0	4,0	3,0	3,0	1,9	2,0	1,5	1,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
7	17-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	107	8,0	4,0	3,0	2,0	1,9	2,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
8	19-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	108	8,0	4,0	3,0	2,0	1,9	2,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
9	22-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	67	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
10	26-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	59	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
11	27-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	78	6,0	3,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
12	32-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	80	6,0	2,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	1,0	1,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
13	44-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	37	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
14	48-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	52	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
15	50-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	55	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
16	52-DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA'LIM MAKTABI	36	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
17	58-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	90	6,0	3,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
18	59-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	81	5,0	2,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
19	60-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	54	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
20	62-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	43	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
21	63-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	54	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
22	71- UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	93	7,0	3,0	3,0	2,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	1,0	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0
23	2-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	53	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
24	13-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	30	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
25	15-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	33	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
26	21-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	32	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
27	33-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	33	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
28	35-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	61	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
29	37-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	40	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
30	38-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	38	3,0	1,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
31	55-MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI	21	1,0	1,0	3,0	0,0	1,9	0,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
32	SANITARIYA EPIDEMIOLOGIYA NAZORATI MARKAZI	75	6,0	3,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	1,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
33	CHUST TUMAN MARKAZIY SHIFOXONASI	2794	182,0	76,0	3,0	53,0	1,9	35,0	1,5	11,0	0,4	3,0	0,1	4,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,0
34	ЧУСТ ТУМАН ОБОДОНЛАШТИРИШ БОШКАРМАСИ	153	14,0	6,0	3,0	3,0	1,9	2,0	1,5	1,0	0,4	1,0	0,6	1,0	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0
35	CHUST TUMAN XALQ TA'LIMI BO'LIMI	73	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
36	CHUST TUMAN HOKIMLIGI MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZI	60	4,0	2,0	3,0	1,0	1,9	1,0	1,5	0,0	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
	JAMI	**5122**	**353**	**152,0**	**3,0**	**101,0**	**1,9**	**74,0**	**1,5**	**14,0**	**0,4**	**6,0**	**0,1**	**6,0**	**0,1**	**0,0**	**0,0**	**0,0**	**0,0**